

YASHIL HUDUDLARNI KO'PAYTIRISH — USTUVOR VAZIFA

“Yashil makon” umum milliy loyihasi doirasida 2022 – 2025-yillarda o'rmon xo'jaliklaridagi ko'chatxona va niholxonalarda 39 milliondan ziyod ko'chatlar hamda nihollar yetishtirilgan. “Kattaqum” massividagi qumliklarda 4 218 gektar yer maydoniga saksovl va cherkez nihollari urug'i sepilgan.

Shu davrda 4 811 km. ochiq va 701 km. yopiq kollektor tarmoqlari, 141 gidrotexnik inshoot, 770 ta kuzatuv qudugi ta'mirlangan, 17 ta gidrotexnik inshoot va 60 ta kuzatuv qudugi qayta qurilgan. Mazkur tadbirlar natijasida yerlarning meliorativ holati yaxshilanib, viloyat bo'yicha sho'rlangan maydonlar 93,8 ming gektardan 90,1 ming gektargacha

kamaytirilgan, bu eroziya va degradatsiyaning oldini olishga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga, majlisda tizimli muammolar mavjudligi ham qayd etildi. Jumladan, melioratsiya obyektlari va qishloq xo'jaligi yerlarini shamol hamda suv eroziyasidan himoya qilish maqsadida ihot daraxtzorlari barpo etish ishlarini jadallashtirish, genetik

resurslardan unumli foydalanish zarurligi ta'kidlandi. Majlis yakunida Parlament komissiyasining tegishli qarori, respublika hamda Surxondaryo viloyatida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar rejasini qabul qilindi, mutasaddi vazirlik va idoralar zimmasiga ularning ijrosini ta'minlash yuzasidan zarur vazifalar yuklatildi.

Senat qo'mitasida

QURILISH SOHASIDA DAVLAT NAZORATI YANADA KUCHAYTIRILADI

Oliy Majlis Senati Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasining majlisida “Qurilish sohasida davlat nazorati va boshqaruvi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun dastlabki tarzda muhokamaga tortildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda qurilish sohasi jadal rivojlanib, ko'p kvartirali uylar qurilishi keskin oshdi. Talafotli zilzilalar yuz berishi esa aholi hayotiga hamda ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmalarga jiddiy xavf soladi.

Senatorlar qurilish sohasidagi davlat nazorati va boshqaruvi yanada takomillashtirish, bino-inshootlarning zilzilabardoshligi hamda seysmik xavfsizligini kuchaytirish zarurati yuzaga kelayotganini ta'kidladi.

Qonun bilan Jinoyat hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilib, ko'p kvartirali uylarni Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qurilish va uy-



joy kommunal xo'jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiya va xavfsizlik xizmatlarini qurilish sohasidagi davlat nazorati va boshqaruvi yanada takomillashtirish maqsadida ihot daraxtzorlari barpo etish ishlarini jadallashtirish, genetik resurslardan unumli foydalanish zarurligi ta'kidlandi.

ta'minlash sohasidagi vakolatlari aniqlashtirilib, shaharsozlik hujjatlari tarkibiga “master-reja” tushunchasi ham kiritilayapti.

Senatorlarning fikricha, ko'rib chiqilgan qonun qurilish sohasidagi davlat nazorati va boshqaruvi yanada takomillashtiradi, qurilayotgan binolar hamda inshootlarning zilzilabardoshligi va seysmik xavfsizligini ta'minlaydi.

Qo'mita a'zolari o'z chiqishlarida ushbu qonun tegishli subyektlarning bu boradagi vakolatlarini aniqlashtirishga hamda shaharsozlik xizmat qilishini ta'kidlab o'tdi.

Muhokama yakunida qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Tadbir

Kun tartibida — yer resurslarini samarali boshqarish masalasi

“O'z daverloyiha” davlat ilmiy loyihalash institutining 65 yilligi munosabati bilan “Qishloq xo'jaligida yer resurslarini barqaror boshqarishda axborot tizimlarining o'rni” mavzuida xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Unda Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi raisi Anvar To'ychiev hamda qo'mita raisi o'rinbosari Sayyora Abdikarimova qatnashdi.

Ta'kidlandiki, qishloq xo'jaligida yer resurslarini samarali va barqaror boshqarishni ta'minlash, zamonaviy axborot tizimlarini keng joriy etish, sohada ilmiy yondashuvlarni yanada kuchaytirish hamda ilg'or tajribalar almashinuvini rivojlantirish doimiy e'tibor markazidagi masalalardan. Shu bois ilm-fan va amaliyot integratsiyasini mustahkamlash milliy taraqqiyotda barqaror hamda texnologik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi.

Ishirokchilar yer resurslarini asrash, degradatsiya jarayonlariga qarshi samarali kurashish hamda unumdor yer maydonlarini kengaytirish davlat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan ekanini qayd etdi.

Shu bilan birga, Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimidagi ilmiy muassasalar, xususan, “O'z daverloyiha” davlat ilmiy loyihalash instituti hamda Tuproqshunoslik va agrokimyoviy tadqiqotlar institutida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar, ularning amaliy natijalari va ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishi yuksak baholandi.

Tadbir yakunida sohani yanada rivojlantirish, yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, degradatsiya jarayonlarini kamaytirish hamda ilmiy tadqiqot ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan qator taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI VAKILLARI — SENATDA

Oliy Majlis huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'larini boshqarish bo'yicha Parlament komissiyasi a'zolari hamda fuqarolik jamiyati institutlari vakillari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Undan ko'zlangan asosiy maqsad — mazkur institutlarning parlament bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash, parlament faoliyatiga oid bilimlarni oshirish hamda jamiyat hayotidagi ijtimoiy ahamiyatga ega tashabbuslarni birgalikda ilgari surishdan iborat bo'ldi.

Tadbirda ishtirokchilarga Oliy Majlis Senatining konstitutsiyaviy vakolatlari, qonunchilik jarayonidagi o'rni, parlament nazorati va diplomatiyasi, shuningdek, davlat boshqaruvi tizimida yaqori palataning roli haqida batafsil ma'lumot berildi. O'z navbatida, yoshlarning

ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faolligini oshirish va ularni qonun ijodkorligi jarayonlariga keng jalb etish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Ishirokchilar Senat devoni va qo'mitalarining faoliyati hamda parlament ish jarayonlari bilan yaqindan tanishdi.

KORRUPSIYANI BIRGALIKDA YENGAMIZ

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi o'rtasida memorandum imzolandi. Ushbu hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish hamda o'zaro manfaatli va dolzarb yo'nalishlar bo'yicha hamkorlikda uchrashuvlar, muhokamalar, seminar-trening, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etishni nazarda tutadi.

Hamkorlik doirasida fuqarolik jamiyati institutlari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy tahlillar o'tkazish, jamoatchilik bilan birgalikda esa geologiya hamda konchilik sohasida korrupsiya omillarini aniqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

Memorandum ikki tomonlama hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan bo'lib, konchilik va geologiya sohasidagi

korrupsiyaviy holatlarni barvaqt aniqlash hamda bartaraf etishga, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlashga, sohada parlament nazoratini ilmiy-uslubiy jihatdan kuchaytirishga xizmat qiladi.

Tomonlar konchilik va geologiya hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi normativ-huquqiy bazani mustahkamlashga, qonunchilik hujjatlari loyihalarni ishlab chiqishda hamkorlik qilishga kelishib oldi.

“Xalq so'zi”.

O'rganish

EKILGAN KO'CHATLAR HUDUD IQLIMI VA TUPROQ SHAROITIGA MOSMI?

Xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining Agrar, suv va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi tomonidan viloyatdagi tuplantatsiyalari va yashil hududlar holati atroflicha o'rganildi.

Jarayonda aniqlandiki, Mirzaobod tumanidagi “Bog'iston” MFY hududida 0,7 gektar maydonga ekilgan ming tup ko'chatning 120 tasi, ya'ni 12 foizi qurib qolgan. Sug'orish yetarli darajada olib borilmagani bois bu ko'rsatkich 30 foizga yetish xavfi mavjud. Shu hududda 5 gektar maydonga barpo etilgan yana bir bog'da sug'orish ishlari o'z vaqtida bajarilmagani sababli ko'chatlarning 20 foizi nobud bo'lgan.

O'rganish davomida Oydin mahallasida 0,8 gektar maydonga ekilgan 1200 tup ko'chatning qariyb 200 tasi (16 foizi) qurigan aniqlandi. Ko'chatlarning ko'karmay, qovjirab qolishiga, asosan, sug'orish tizimi yaxshi yo'lga qo'yilmagani, parvarish vaqtida bajarilmagani sabab bo'lgan.

Ko'chat ekishda daraxt turlarini tanlash ham muhim ahamiyatga ega, — deydi xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining Agrar, suv va qishloq xo'jaligi masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi a'zosi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Nigoraxon Sultonova. — Ayni jihatga, ya'ni yashil hududlar yaratishda ko'chatlarning tuproq va iqlim sharoitiga mos kelishiga e'tibor qaratmaslik ham ekilgan nihollarning amal olinmasligiga sabab bo'layotir. Ushbu nomaqbul yondashuv o'rganish olib borilgan hududlarda ham kuzatildi. Shu va boshqa kamchiliklarni zudlik bilan bartaraf etish, sug'orish tizimini yaxshilash, agrotexnik tadbirlarni kuchaytirish hamda kelgusida hudud iqlimiga mos ko'chatlar tanlash yuzasidan doimiy komissiya tomonidan mutasaddi tashkilotlarga aniq tavsiyalar berildi.

Ahmadali SHERNAZAROV (“Xalq so'zi”).

HISOB PALATASINING HISOBOTI KO'RIB CHIQLDI

Yig'ilishda mablag'larni undirish mexanizmini takomillashtirish, byudjetdan sarflangan mablag'larning ijtimoiy ta'sirini baholash hamda mahalliy byudjetlar ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish zarurligi urg'ulandi.

O'zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Hisob palatasining hisoboti atroflicha ko'rib chiqilib, qator takliflar bildirildi.

Qayd etilishicha, davlatimiz rahbarining so'nggi yillarda qabul qilgan muhim farmonlari davlat auidi va moliyaviy nazorati tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga zamin yaratdi. Natijada O'zbekistonda

ta'minlash masalasini ko'rib chiqish taklifini ilgari surdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari muhokama jarayonida davlat mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda elektorat manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan resurslarning manzilli yo'naltirilishi masalalariga e'tibor qaratdi.

Aytilganidek, joriy yil hisoboti avvalgi yillardagiga nisbatan shaklan va mazmunan takomillashtirish. Unda aniqlangan kamchiliklar, korrupsiyon holatlar hamda ularning kelib chiqish omillarini bartaraf qilish yuzasidan tegishli vazirlik va idoralarga berilgan topshiriqlar aniq aks ettirilgan.

Deputatlar ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya sohalarida aniqlangan muammolarni bartaraf etish dolzarb vazifa ekanini ta'kidlab, parlament nazoratini yanada kuchaytirish zarurligini urg'ulashdi.

Xususan, fraksiya a'zosi Shokirjon Ahmedov byudjet mablag'laridan samarali foydalanish borasida ijobiy natijalarga erishilganini e'tirof etib, ayrim kamchiliklar mavjudligini ta'kidladi. Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari samaradorligini oshirish zarurligini aytdi.

2026-yil va keyingi davrda davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish,



zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, inson omilini qisqartirish hamda jarayonlarni raqamlashtirish muhimligi ta'kidlandi. Shuningdek, davlat xaridlari va moliyaviy operatsiyalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilmalar o'rtasida samarali axborot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Fraksiya a'zosi Anvar Nurmatov esa aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha islohotlar samaradorligi hisobotida yetarlicha ochib berilmaganini ta'kidladi. Ushbu yo'nalishga tegishli mablag'lar ajratilayotganiga qaramasdan, aholi bilan uchrashuvlarda amaliy natijalar yetarli darajada sezilmayotgani urg'ulandi. Kelgusida Hisob palatasi hisobotlarida ajratilgan mablag'lar samaradorligini aniq ko'rsatkichlar asosida yoritish taklif etildi.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari tomonidan qator savollar ko'tarildi. Jumladan, deputat Jahongir Shirinov O'zbekistonning oltin zaxiralari nazorati bilan bog'liq masalani ko'targan bo'lsa, deputat Nodir Tilavoldiyev korporativ qarz masalasidagi savolni o'rta qatashdi. Deputat Sayyora Jumayeva ijtimoiy himoya bilan bog'liq masalada o'zini qiziqtirgan savollarga javob oldi. Fraksiya a'zosi Farhod Zayniev hisobotdagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda har bir davlat idorasida tashkil etilgan ichki audit xizmatlari ishi kutilgan natijani bermayotganini aytib, palata vakilidan bunga izoh so'radi.

Ko'tarilgan barcha savollarga mutasaddilar atroflicha javob berdi.

Muhokamada Hisob palatasining 2025-yilgi faoliyatiga munosabat bildirilib, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda o'zgarishlarga monand faoliyat yuritayotgani ta'kidlandi. Buning isbotini Hisob palatasi o'z ishida raqamli texnologiyalardan, ayniqsa, sun'iy intellektdan keng va samarali foydalanayotganida ham ko'rish mumkinligi aytiladi.

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari taqdim etilgan hisobotda Davlat byudjeti mablag'larining shakllanishi va sarflanishida qonuniylik, maqsadlilik hamda samaradorlikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar bayon qilinganiga e'tibor qaratdi.

Shuningdek, muhokama chog'ida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida aholini dori vositalari bilan ta'minlash tizimini yanada yaxshilash masalasi e'tibor markazida bo'ldi.

Partiya elektoratining salmoqli qismi ta'lim va tibbiyot sohasi vakillaridan iborat ekanini inobatga olib, mazkur yo'nalishlarga ajratilayotgan byudjet mablag'larining manzilli va samarali sarflanishi masalasiga ahamiyat berildi.

Hisobotdan ko'rinib turibdiki, sohada ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash, sun'iy intellekt va raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilgan, — deydi fraksiya a'zosi Dilmurod Ismoilov. — Ijro samaradorligi esa sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini alohida aytish lozim.

Albatta, bu borada davlatimiz rahbarining “Davlat auidi va moliyaviy nazorati faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Farmon mustahkam huquqiy asos bo'lib xizmat qilayotir.

Munozaralarda fraksiya a'zolari Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida ayrim ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlarining moliyaviy barqarorligini

ta'minlash masalasini ko'rib chiqish taklifini ilgari surdi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari muhokama jarayonida davlat mablag'laridan samarali va maqsadli foydalanish, ijtimoiy sohalarni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish hamda elektorat manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan resurslarning manzilli yo'naltirilishi masalalariga e'tibor qaratdi.

Aytilganidek, joriy yil hisoboti avvalgi yillardagiga nisbatan shaklan va mazmunan takomillashtirish. Unda aniqlangan kamchiliklar, korrupsiyon holatlar hamda ularning kelib chiqish omillarini bartaraf qilish yuzasidan tegishli vazirlik va idoralarga berilgan topshiriqlar aniq aks ettirilgan.

Deputatlar ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va ijtimoiy himoya sohalarida aniqlangan muammolarni bartaraf etish dolzarb vazifa ekanini ta'kidlab, parlament nazoratini yanada kuchaytirish zarurligini urg'ulashdi.

Xususan, fraksiya a'zosi Shokirjon Ahmedov byudjet mablag'laridan samarali foydalanish borasida ijobiy natijalarga erishilganini e'tirof etib, ayrim kamchiliklar mavjudligini ta'kidladi. Ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish tizimlari samaradorligini oshirish zarurligini aytdi.

2026-yil va keyingi davrda davlat moliyaviy nazoratini kuchaytirish,



zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, inson omilini qisqartirish hamda jarayonlarni raqamlashtirish muhimligi ta'kidlandi. Shuningdek, davlat xaridlari va moliyaviy operatsiyalarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tuzilmalar o'rtasida samarali axborot almashinuvini yo'lga qo'yish hamda qonunchilikdagi bo'shliqlarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Fraksiya a'zosi Anvar Nurmatov esa aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha islohotlar samaradorligi hisobotida yetarlicha ochib berilmaganini ta'kidladi. Ushbu yo'nalishga tegishli mablag'lar ajratilayotganiga qaramasdan, aholi bilan uchrashuvlarda amaliy natijalar yetarli darajada sezilmayotgani urg'ulandi. Kelgusida Hisob palatasi hisobotlarida ajratilgan mablag'lar samaradorligini aniq ko'rsatkichlar asosida yoritish taklif etildi.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari tomonidan qator savollar ko'tarildi. Jumladan, deputat Jahongir Shirinov O'zbekistonning oltin zaxiralari nazorati bilan bog'liq masalani ko'targan bo'lsa, deputat Nodir Tilavoldiyev korporativ qarz masalasidagi savolni o'rta qatashdi. Deputat Sayyora Jumayeva ijtimoiy himoya bilan bog'liq masalada o'zini qiziqtirgan savollarga javob oldi.

Fraksiya a'zosi Farhod Zayniev hisobotdagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda har bir davlat idorasida tashkil etilgan ichki audit xizmatlari ishi kutilgan natijani bermayotganini aytib, palata vakilidan bunga izoh so'radi.

Ko'tarilgan barcha savollarga mutasaddilar atroflicha javob berdi.

Muhokamada Hisob palatasining 2025-yilgi faoliyatiga munosabat bildirilib, so'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda o'zgarishlarga monand faoliyat yuritayotgani ta'kidlandi. Buning isbotini Hisob palatasi o'z ishida raqamli texnologiyalardan, ayniqsa, sun'iy intellektdan keng va samarali foydalanayotganida ham ko'rish mumkinligi aytiladi.

TAASSUROLARGA BOY UCHRASHUVLAR

Oliy Majlis Senatida Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari ishtirokida ochiq muloqot bo'lib o'tdi. Unda yoshlarga Senatning faoliyati, tashkiliy tuzilmasi hamda qonun ijodkorligi jarayonidagi o'rni haqida ma'lumot berildi.

Ochiq muloqot

Uchrashuvda Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasi raisi Bahrom Abdullayev parlament faoliyatining amaliy jihatlari, qonun loyihalarni ishlab chiqish va qabul qilish bosqichlari, shuningdek, ta'lim sohasidagi islohotlar yuzasidan so'z yuritdi. Talabalar o'z savollari bilan faol ishtirok etib, dolzarb masalalar bo'yicha batafsil javob oldi.

Shu kuni Senatda O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabalari bilan ham uchrashuv tashkil etildi.

Unda talabalarga parlament yuqori palatasining asosiy vazifalari, ustuvor yo'nalishlari, senatorlarning qonun ijodkorligi va hududlar bilan ishlash jarayonlari haqida batafsil ma'lumot berildi. Shuningdek, Yoshlar parlamentining faoliyati, uning navjiron avlod manfaatlarini ifoda etishdagi o'rni hamda turli tashabbuslarni ilgari surishdagi




imkoniyatlari haqida tushunchalar berildi.

Tadbir doirasida Senat devonining Axborot xizmati faoliyati bilan ham tanishildi. Talabalar parlament hayotini ommaviy axborot vositalarida yoritish mexanizmlari, axborot tayyorlash jarayoni, jamoatchilik bilan aloqalarni yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy ma'lumotlarga ega bo'ldi.

“Xalq so'zi”.

Davlatimiz rahbari Qozog'iston Respublikasi Prezidenti taklifiga binoan Ostonada shahriga amaliy tashrifi doirasida Mintaqaviy ekologik sammit hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi yig'ilishida ishtirok etib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi.



Munosabat

EKOLOGIK MUVOZANATNI TA'MINLASHGA QARATILGAN TASHABBUSLAR

Qozog'iston mezbonligida bo'lib o'tgan mintaqaviy ekologik sammit Samarqand iqlim forumida boshlangan muloqotning mantiqiy davomi bo'lib, Markaziy Osiyoda ekologik diplomatiya mazmunan yangi bosqichga ko'tarilayotganini ko'rsatadi.

Prezidentimizning sammitdagi nutqi chuqur tahlillarga asoslangan va aniq amaliy takliflarga boy bo'lgani bilan alohida ajralib turadi. Jumladan, davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda harorat o'sishi jahon o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan ikki barobar tez kechayotganini ta'kidladi. So'nggi o'n yilliklarda muzliklar sezilarli qisqarib, daryolar oqimiga va suv ta'minotiga bevosita ta'sir ko'rsatayotganini ham aytib o'tildi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida yer maydonlarining 80 million gektar degradatsiyaga uchragan agrar sektor va oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy signal sifatida qaralishi lozimligini yana bir bor qayd etdi.

Suv resurslari masalasi esa alohida tahlil qilindi. Ushbu yo'nalishda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ishlar aniq misollar bilan keltirildi.

Sammit doirasida ilgari surilgan bu yondashuvlar faqat texnik choralar emas, albatta. Prezident tomonidan ta'kidlangan "suv madaniyati" tushunchasi bu boradagi eng muhim g'oyalardan biri bo'ldi. Muammoning yechimi insonning kundalik odatlarida ekaniga urg'u berildi. Agar suvdan foydalanish madaniyati o'zgarmasa, eng ilg'or texnologiyalar ham cheklangan natija beradi. Shu bois ta'lim tizimi, qonunchilik va jamoatchilik nazorati uyg'unlashgan holda ishlashi kerakligi alohida qayd etildi.

Sammitda ilgari surilgan tashabbuslar amaliyotga qaratilgan bilan ajralib turadi. Bugun O'zbekiston ekologik barqarorlikka erishish, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida o'z tajribasida amalga oshirgan, natija bergan, xalq tilida aytganda, "ishlagan" aniq misollarni mintaqada joriy etishni taklif qilmoqda. Mazkur sammitda ham davlat rahbari tomonidan ilgari surilgan taklif va tashabbuslarning aksariyati mamlakatimizda joriy etilgan va o'zining ijobiy natijasini bergan. "Yashil makon" umummilliy loyihasi olamizni yoki Orolning qurigan tubida yashil o'rmonzorlarni barpo qilishni, bular suvi va havosi, iqlimi bir xil bo'lgan mintaqaning boshqa hududlarida ham birdek natija beradigan amaliy ishlarga yorqin misoldir.

"Markaziy Osiyoning toza havosi" konsorsiumini tashkil etish taklifi sanoatni modernizatsiyalash,



havoqa chiqarilayotgan zararli moddalarni qisqartirish va aholi salomatligi muhofazasiga xizmat qiladi. Bu yerda ekologik siyosatning ijtimoiy o'lchami aniq ko'rinib turibdi.

O'zbekistonda Yashil universitet huzurida faoliyat yuritayotgan Cho'llanishga qarshi kurashish, qurg'oqchilikning oldini olish hamda qum va chang bo'ronlari haqida barvaqt ogohlantirish markaziga mintaqaviy maqom berish tashabbusi esa ilmiy salohiyatni birlashtirishni nazarda tutadi. Bu qarorlar qabul qilish jarayonida ilmiy asoslarni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, "yashil savdo yo'lagi"ni shakllantirish, yagona investitsiya portfelini yaratish, mintaqaviy ekologik atlas ishlab chiqish, "Markaziy Osiyo Qizil kitobi"ni tayyorlash kabi tashabbuslar hamkorlikni institutsional darajaga olib



chiqadi. Bu yerda bir muhim jihatta e'tibor qaratish kerak. Bugun mamlakatimizda ekologik kun tartibi iqtisodiy manfaatlar bilan uyg'unlashib bo'ldi. Endi buni mintaqada davlatlarga ham namuna sifatida ko'rsatish va amalga oshirish zarurati turibdi. Chunki davlatimiz rahbari o'z nutqida ta'kidlaganidek, iqlim o'zgarishiga eng kam hissa qo'shgan mamlakatlar uning eng og'ir oqibatlarini boshidan kechirayotir. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliya, texnologiya va innovatsiyalarga teng hamda to'siqsiz kirish imkoniyatini ta'minlash masalasi Markaziy Osiyo uchun prinsipial ahamiyatga ega.

Shuningdek, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi

ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida Orol dengizi havzasiga oid masalalar kun tartibi markazida bo'ldi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatini takomillashtirish, uning institutsional imkoniyatlarini kengaytirish va moliyalashtirish mexanizmlarini mustahkamlash bo'yicha takliflar ilgari surildi. Bu esa mintaqada suv-energetika va ekologik muammolarni kompleks tarzda yechishga xizmat qiladi.

Yana bir muhim yo'nalish mintaqaviy tashabbuslarni global kun tartibiga olib chiqishdir. Masalan, davlatimiz rahbarining 2026 - 2036-yillarni "Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilish taklifi sohada uzoq muddatli strategiyani shakllantirishga qaratilgan. Shuningdek, Samarqandda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro forumlar mintaqaning global ekologik jarayonlardagi o'rmini kuchaytiradi.

Ekologik partiya, uning Qonunchilik palatasidagi fraksiyasi nuqtayi nazaridan qaraganda, mazkur sammitni birlashtirish nuqtasi sifatida baholash uchun asoslar yetarli. Chunki bu yerda ilgari surilgan tashabbuslar bir nechta muhim xususiyatga ega. Eng avvalo, ular aniq tahlil va raqamlarga tayanadi, amalga oshirish mexanizmlari aniq ko'rsatilgan, qolaversa, ular mintaqaning real ehtiyojlariga juda mos keladi.

Eng asosiysi, ekologik muammolarga munosabat o'zgarayapti. Ular faqat cheklov yoki xavf sifatida emas, balki yangi imkoniyatlar manbai sifatida ko'rilmoqda. Bu esa "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish orqali barqaror o'sishga erishish imkonini beradi.

O'z navbatida, ekologik masalalar, atrof-muhit muhofazasi parlamentning doimiy e'tiborida bo'lib, ushbu yo'nalishda qator muhim qonunlar qabul qilindi, sohaning huquqiy asoslari izchil takomillashtirilib borilmoqda.

Ostonada sammiti, xususan, unda Prezidentimiz tomonidan bildirilgan takliflar Markaziy Osiyoda ekologik siyosatning yangi bosqichini boshlab berishga zamin hozirlamoqda. Endi mintaqada global muammolar ta'sirida qoluvchi emas, balki aniq yechim taklif qilayotgan hudud sifatida namoyun bo'lyapti.


Abdushukur HAMZAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi
O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi
rahbari.

Dunyo nigohi

MINTAQADA TRANSCHEGARAVIY MUAMMOLARNI HAL QILISHGA MUSHTARAK YONDASHUVLAR

Xorijiy ekspertlar O'zbekiston Prezidentining Ostonada shahriga amaliy tashrifi yakunlarini mintaqaviy ekologik hamkorlikni mustahkamlash va Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanishning qo'shma kun tartibini tizimli amalga oshirishga o'tishning muhim bosqichi sifatida baholamoqda.

Marina GONCHARUK,
Ukrain - Turk markazi direktori:



O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning taklifiga binoan Ostonada bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammit hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining yig'ilishidagi ishtiroki rasmiy Toshkentning izchil va strategik jihatdan puxta siyosatini yaqqol aks ettiradi.

Bu yerda gap shunchaki diplomatik ishtirok haqida emas, balki Markaziy Osiyoning barqaror rivojlanish kun tartibi shakllantiriladigan va butun mintaqaga uchun uzoq muddatli ahamiyatga ega qarorlar qabul qilinadigan muhim formatlarda mazmunli qatnashish haqida bormoqda.

Bugungi kunda ekologik muammolar, jumladan, suv resurslari va iqlim o'zgarishi masalalari Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning transchegaraviy muammolarni hal qilish bo'yicha aniq yondashuvlarni taklif etib, faol tashabbuskor va birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqayotgani, ayniqsa, muhimdir.

Shandor SHEREMET,
Vengriya Xalqaro munosabatlar instituti
yetakchi ilmiy xodimi:

O'yashimcha, Orol dengizi fojiasi yana bir bor shuni ko'rsatmoqdaki, iqlim bilan bog'liq muammolar chegara tanlamaydi. Yakka tartibdagi tashabbuslar muhim bo'lsa-da, ular kompleks mintaqaviy hamkorlik sifatida cheklangan natija beradi.

Suv ta'minoti, suv tanqisligi, qurg'oqchilik va Orol dengizi o'rmasida paydo bo'lgan Orolqum cho'lidan tuz hamda chang tarqalishi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun qit'a uchun umumiy muammodir.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatidagi ishtiroki davlatning

iqlim masalalariga mas'uliyat bilan yondashayotganini va mintaqaviy hamkorlikning muhimligini to'g'ri angliyatganini ko'rsatadi.

Sirdaryo va Amudaryo suv resurslarini taqsimlash bo'yicha yagona avtomatlashtirilgan tizim joriy etish, transchegaraviy suvlardan foydalanish bo'yicha huquqiy asoslarni shakllantirish kabi tashabbuslar mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sheradil BAKTIGULOV,
Qirg'iziston Jahon siyosati instituti
direktori:



O'zbekiston Prezidentining ushbu sammitida ishtirokini uchta asosiy jihat bilan izohlash mumkin. Birinchidan, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanmoqda. Orol fojiasi barcha davlatlar uchun umumiy muammo bo'lib, uni birgalikda hal qilish zarur. Bu masala nafaqat mintaqada, balki qo'shni hududlarga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekistonning "yashil diplomatiya"ga o'tayotgani va Ostonada muloqot maydoniga aylananotgani muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, iqlim masalalari iqtisodiyot bilan bevosita bog'lanmoqda. Sammitda suv tejavchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, shuningdek, transchegaraviy daryolardan foydalanish kabi masalalar muhokama etildi. Ishlab chiqilayotgan qarorlar Markaziy Osiyoda yashovchi millionlab odamlarning hayotiga ta'sir qiladi.

Uchinchidan, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatini yangilash masalasi ko'tarildi. Ilgari uning ishi keng jamoatchilikka unchalik sezilmagan bo'lsa, endilikda uni samarali mexanizmlar va moliyaviy vositalar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston bu jarayonda faol tashabbus ko'rsatmoqda.

Ostonadagi uchrashuvlar shuni ko'rsatadiki, suv va ekologiya masalalari endilikda nizo manbai emas, balki mintaqaviy hamkorlikni kuchaytiruvchi omilga aylangan. Erishilgan kelishuvlar kelgusida Markaziy Osiyoning "yashil" rivojlanish asosini shakllantirishga xizmat qiladi.

"Dunyo" AA.

SUV – BU TAQDIR, TIRIKLIK DEGANI

Ostonada shahrida bo'lib o'tgan Mintaqaviy ekologik sammit hamda Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashi yig'ilishida davlatimiz rahbari ishtirok etib, ilgari surgan taklif va tashabbuslarni katta tarixiy ahamiyatga ega.

Nega? Chunki mazkur sammitlarda qabul qilingan bayonotlar, zaruriy kelishuvlardan ko'rish mumkin, davlatlar faqat ular bilan cheklanmay, amaliy harakatlarga o'tmoqda. Jumladan, Prezidentimiz taklifiga ko'ra, 2026 - 2036-yillarning "Suvdan foydalanish bo'yicha amaliy harakatlar o'n yilligi" deb e'lon qilinishi haqidagi tashabbus ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Ekologiya – nafaqat iqlim, balki toza havo, suv, tuproq va oziq-ovqatni o'z ichiga olgan insoniyat hayotining asosi. Shu ma'noda, iqlim hamda suv bilan bog'liq global muammolarni hech bir mamlakat mustaqil ravishda hal qila olmaydi, Orol dengizi bunga misol bo'la oladi.

Nuqtai nazar

Tizimli islohotlar drayveri

Orol dengizining qurishi natijasida mintaqa mikroiklimi keskin o'zgaradi, havo harorati oshadi. Yog'ingarchilik kamaydi, shamol faolligi ortadi, chang-to'zonli bo'ronlar soni ko'payishi kuzatilmoqda. Bularning barchasi yer resurslari degradatsiyasiga, suv tanqisligiga va bioxilmaxillikning kamayishiga sabab bo'lmoqda. Natijada qishloq xo'jaligi samaradorligi pasayayapti, ichimlik suvi ta'minotiga bosim ortyapti, aholi salomatligiga jiddiy xavf tug'ilmoqda. Shularni inobatga olib, davlatimiz rahbari xalqaro miqyosda ekologik barqarorlikni ta'minlash, tabiiy resurslarni muhofaza qilish va iqlimga moslashish bo'yicha ko'plab tashabbuslarni ilgari surib kelayotir.

Bugungi kunda mintaqamiz suv resurslaridan foydalanish borasida dunyodagi eng samarasiz nuqtalardan biri bo'lib qolayotir. O'zbekiston bu borada nafaqat tashabbuskor, balki tizimli islohotlar drayveri, namunasini sifatida maydonga chiqib, amaliy natijadorlikni isbotlayapti. E'tibor bering, sug'oriladigan yerlarning 60 foizida tejankor texnologiyalarning joriy etilishi va yillik 10 mird. kub metr suvning iqtisod qilinishi, nazariyadan amaliyotga

o'tishning eng yorqin namunasidir.

Mamlakatimiz yetakchisi tomonidan belgilab berilgan oltita ustuvor yo'nalish shaffoflik va natijadorlikka qaratilgan. Bugun BMT shafeligidagi Orol bo'y mintaqasi uchun inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik asosida trust fondi mandatini butun havzaga kengaytirish va Toshkentdagi Yashil universitet qoshidagi ilmiy markazlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali suv muammosiga ilm hamda innovatsiyalar bilan yechim topish davri boshlanmoqda. Afg'oniston suv resurslarini taqsimlash bo'yicha mintaqaviy muloqotga jalb etish tashabbusi O'zbekistonning geosiyosiy mas'uliyati hamda uzoqni ko'zlagan oqilona siyosatining mevasidir.

Biroq jamiyatning, fuqarolarning suvga bo'lgan munosabati o'zgarmas ekan, har qanday yuksak texnologiya yoki xalqaro shartnoma kutilgan natijani bermaydi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan "Kelajak suvi" dasturi va suvdan oqilona foydalanishni bizzning "umumiy madaniy kodimiz"ga aylantirish g'oyasi – bu mavna'iy inqilob.

Strategik integratsiya platformasi

Sammitda suv tejavchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, shuningdek, transchegaraviy daryolardan foydalanish kabi masalalar muhokama etildi. Qabul qilinayotgan qarorlar



Markaziy Osiyoda yashovchi millionlab odamlarning hayotiga ta'sir etadi.

Xususan, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi faoliyatini kuchaytirish orqali Markaziy Osiyo davlatlari suv va iqlim bilan bog'liq muammolarni tizimli ravishda hal qilish imkoniga ega bo'ladi. Kelgusi yildan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasiga raislik O'zbekistonga o'tadi. Davlatimiz rahbari jamg'armani mintaqaviy integratsiyaning muhim drayverlaridan biriga aylantirish niyatini bildirdi. Bu mintaqaviy hamkorlikni byurokratik tuzilmasdan strategik integratsiya platformasiga aylantirish uchun tarixiy imkoniyatdir.

Prezidentimiz O'zbekiston raisligining ustuvor yo'nalishlari haqida ma'lumot berdi. Bunda jamg'armaning faoliyatini rivojlantirish va modernizatsiya qilish, jamg'arma kun tartibini Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari qarorlari bilan uyg'unlashtirish, dastur va loyihalari samaradorligini oshirish, boshqa mintaqaviy tuzilmalar o'rtasida faol hamkorlikni yo'lga qo'yish, xalqlarimizning suvga hayot manbai sifatida ehtiyoqkorlik bilan munosabatda bo'lish borasidagi ko'p asrlik an'analarni qayta tiklash kabi takliflar bildirildi. Ostonadagi uchrashuvlarda erishilgan kelishuvlar kelgusida Markaziy Osiyoning "yashil rivojlanish" asosini shakllantirishga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbari ilgari surgan Markaziy Osiyo atrof-muhitidagi

o'zgarishlarning yagona mintaqaviy atlasini yaratish ham mintaqada kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Atlas mintaqadagi cho'llanish, tuproq degradatsiyasi jarayonlari va suv resurslari holati dinamikasini yaqqol ifoda etadigan fundamental ilmiy-tahliliy bazaga aylanadi.

Shuningdek, ekologik kun tartibini ilgari surish doirasida bu yil Samarqandda Global ekologik fond assambleyasi, Suvni tejash bo'yicha Butunjahon forumi bo'lib o'tishi e'lon qilindi.

Bu yerda gap shunchaki anjuman o'tkazish haqida bormayapti. Iqlim o'zgarishi va tog'larda qor qatlamining kamayishi fonida xavflar bir necha jihatdan ortib bormoqda. Bu geosiyosiy keskinlikni kuchaytiradi. Shu bois har qanday davlat uchun suvdan oqilona hamda samarali

Bunday uskunalar suvni to'g'ridan-to'g'ri o'simlik ildiziga yetkazish, bug'lanish va yerusti oqimida yo'l qo'yiladigan isrofgarchilikni kamaytirishga yordam beradi. Masalan, tomchilatib sug'orish bilan suv o'z vaqtida va aniq miqdorda yetkaziladi, yomg'irli va sug'orish esa maydonlarda suvni bir tekis taqsimlash imkonini yaratadi. Shuningdek, lazerli tekislashda yer maydonlari yaxshiroq hamda samarali sug'oriladi.

Raqamlar bilan izohlaganda, mazkur qarorda 2026 - 2028-yillarda suv tejavchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar hajmini 3,5 mln. gektarga yetkazish asosiy maqsadli ko'rsatkich sifatida belgilangan. Jumladan, 220 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish natijasida suvni to'g'ridan-to'g'ri o'simlik ildiziga yetkazish, bug'lanish va yerusti

Inqirozga qarshi izchil hamkorlik

Ta'kidlash joizki, mintaqada davlatlari ekologik xavflarni to'liq anglab, inqirozning oldini olishda hamkorlik qilayotgani eng katta yutuq. Deylik, O'zbekiston, Qozog'iston va Qirg'iziston o'rtasida "Qambarota GES-1" loyihasi birgalikda amalga oshirish to'g'risidagi bitim mintaqaning suv-energetika resurslaridan birgalikda foydalanish amaliyotida yangi sahifa ochgani qardoshlar hamkorlikning yorqin dalili.

Rasmiy Toshkent va Bishkek o'rtasida "Chashma" bulog'idan birgalikda foydalanish to'g'risidagi kelishuv oqilona murosaga yana bir misoldir. O'zbekiston hamda Tojikiston ishtirokida Zarafshon daryosida "Yovon" va "Fondaryo GES"larini qurish bo'yicha hamkorlik oldinga siljimoqda, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston o'rtasida "Bahri Tojik" suv omborini vegetatsiya davrida kelishilgan tartibda ishlatish bo'yicha kelishuvlarga erishilgan ham diqqatga sazovor.

Bundan tashqari, Turkmaniston bilan hukumatlararo bitim doirasida Amudaryo suv resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kelishuvga erishildi. Bu suv resurslarini birgalikda boshqarishni yaxshilash bilan birga, ekologik muammolar xavfini kamaytiradi. Bularning barchasi ishonch, o'zaro manfaatdorlik va umumiy resurslarga adolatli yondashuvga asoslangan yangi hamkorlik ruhini shakllantirmoqda. Bunday loyihalar aholining iqtisodiy faolligini qo'llab-quvvatlash hamda mintaqaning energetik xavfsizligini mustahkamlash uchun yangi imkoniyatlar ochayotir.

Suv – bu taqdir degani. Demak, ilgari surilayotgan tashabbuslar, qabul qilinayotgan qarorlar, tejalgan har bir tomchi obihayot ertaga kelajak avlodni, bog'u rog'larning gullab-yashnashi, demakki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydi. Prezidentimizning suvni asrash borasidagi davlati bugungi hamda ertangi avlodlar oldidagi qazimiz va mas'uliyatimizni anglatadi. Zotan, obihayotni asrash – Vatanni asrash, dunyoni asrash bilan barobar.

Muhiddin KALONOV,
Navoiy davlat pedagogika universiteti rektori vazifasini bajaruvchi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Endi banklar fuqaroning plastik kartasida BHMning 3 barobari (1 mln. 236 ming so'm)dan ortiq pul bo'lsagina, undan kreditni so'ndirish uchun yechib olishi mumkin bo'ladi.

Biz va jahon

BUYUK TEMURIYLAR
TARIXI VA MADANIY
MEROSI TARG'IBOTI

22-aprel kuni Ispaniya poytaxti Madrid shahridagi "Casa Arabe" madaniyat markazida mamlakatimiz elchixonasi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi hamda "O'zbekkino" milliy agentligi hamkorligida "Buyuk temuriylar tarixi va madaniy merosi" mavzuida mediatadbir tashkil etildi.

Unda ilmiy-akademik doiralar, madaniyat muassasalari, ekspertlar hamjamiyati vakillari hamda Osiyo, Yevropa Ittifoqi va Lotin Amerikasi mamlakatlarining elchilari ishtirok etdi. Dastur doirasida O'zbekistonda keng nishonlanayotgan Amir Temur tavalludining 690-yilligi hamda Sohbiqironning boy merosiga bag'ishlangan tadbirlar haqidagi videomateriallar namoyish etildi.



Mediatadbirda O'zbekiston elchisi Farrux Tursunov kuchayib borayotgan global keskinlik sharoitida davlatlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro hurmat va konstruktiv hamkorlik alohida ahamiyat kasb etayotganini urg'uladi. O'zbekiston tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, barcha mojarolarni faqat tinch yo'l bilan hal qilishga qaratilgan ochiq va pragmatik tashqi siyosatni izchil amalga oshirayotganini ta'kidlagan. Shu nuqtayi nazardan, davra suhbatini ishonchni rivojlantirish, gumanitar aloqalarni kengaytirish va yangi qo'shma tashabbuslarni ishlab chiqish uchun muhim maydon sifatida baholandi.

O'zbekiston Prezidentining maslahatchisi, taniqli yozuvchi Xayriddin Sultonov so'zga chiqib, O'zbekiston – Ispaniya munosabatlari barqaror ijobiy o'sish kuzatilayotganini ta'kidlagan. Uning so'zlariga ko'ra, ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlik sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilmoqda va bunda madaniy-gumanitar hamda ilmiy aloqalar hal qiluvchi o'rin tutmoqda.

O'zbekiston – Ispaniya o'rtasidagi ikki tomonlama aloqalarning Amir Temur davriga, Sharq va Yevropa o'rtasidagi ilk diplomatik missiyalarga borib taqalishi alohida e'tirof etildi. Hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari qatorida "Temur tuzuklari"ni ispan tilida nashr qilish, ilmiy markazlar va muzeylar o'rtasidagi aloqalarni rivojlantirish, madaniyat va kinematografiya sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish rejalari bayon etildi.

O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi direktori Firdavs Abdullolqov Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil qilingan markaz faoliyati haqida ma'lumot berdi. Markaz mamlakatning uch ming yildan ziyod tarixini o'rganishga hamda o'zbek xalqining jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga qo'shgan hissasini targ'ib etishga yo'naltirilgan noyob ilmiy-ma'rifiy maskan hisoblanadi.

So'nggi yillarda 1500 dan ortiq noyob eksponatlar O'zbekistonga qaytarilgan ta'kidlanishi barobarida, Amir Temurning 690-yilligiga bag'ishlangan ekspozitsiyaga alohida urg'u berildi: unda temuriylar davriga oid noyob qo'lyozmalar, xaritalar va osoriatqalar namoyish etildi. Shuningdek, mamlakatlarimiz o'rtasidagi tarixiy aloqalar, xususan, ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixoning Amir Temur saroyiga tashrifi ham tilga olindi.

Temuriylar tarixi Davlat muzeyi direktori Xurshid Fayziyev Amir Temur Turon zaminidagi ikkinchi Rennassans asoschisi, temuriylar davri esa jahon sivilizatsiyasi rivojining muhim bosqichlaridan biri bo'lganini ta'kidlagan. Xususan, bu davr Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat va san'atning misli ko'rilmagan yuksalishi bilan tarixga kirgani aytiladi. Zero, Amir Temur nafaqat olimu shoirlarni qo'llab-quvvatlagan, balki butun dunyodan atoqli mutafakkirlarni jalb etib, qudratli intellektual markazlarni shakllantirish uchun sharoit ham yaratgan.

Me'morchilik, kitobat san'ati va ilm-fanning rivojiga, ilm homiyligi an'analarni davom ettirgan uning avlodlari, jumladan, Ulug'bek faoliyati, shuningdek, Alisher Navoiyning hayoti va ijodiga alohida e'tibor qaratildi. Aynan shu davrda jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatgan madaniy va ilmiy yutuqlar shakllangan urg'ulandi.

Uchrashtiruvchi Davlat Avtonom universiteti professori Xesus Xil, "La Temurid" assotsiatsiyasi prezidenti Frederik Bressand va boshqa ilmiy hamda ekspert doiralar vakillari ham so'zga chiqdi. Ishirokchilar ilmiy-madaniy sohada O'zbekiston – Ispaniya hamkorligi faollashganini, xususan, bunday tadbirlarning Yevropaning yetakchi madaniyat markazlarida o'tkazilishi xalqaro hamjamiyatning O'zbekistonning tarixiy merosiga va uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasiga qiziqishi ortib borayotganidan dalolat berishini ta'kidlashdi.

"Dunyo" AA.
Madrid

TOSHKENT ZILZILASI SABOQLARI VA
ERTA OGOHLANTIRISH MILLIY TIZIMI

1966-yil 26-aprel. Toshkent zamini qattiq silkindi. Bu sana nafaqat poytaxtimiz, balki butun Markaziy Osiyo tarixida seysmologiya va zilzila muhandisligining yangi bosqichini boshlab bergan burihish nuqtasi sifatida tarixga muhrlandi. Bu og'ir sinov, katta yo'qotishlar, iztirob va xavotir davri edi. Ammo tarix shuni ko'rsatadiki, xalqlarning buyukligi aynan sinov davrida namoyon bo'ladi. O'zbekiston xalqi ham bu musibatdan kelajak uchun zarur xulosa chiqardi.

Xalqaro konferensiya oldidan

Oradan oltmish yil o'tdi. Bu vaqtda nafaqat shaharlar qiyofasi, balki butun bir davlat tafakkuri o'zgardi. Bugungi Yangi O'zbekiston ana shu og'ir tarixiy saboqlarga tayanib, inson hayoti va xavfsizligini eng oliy qadriyat sifatida belgilagan holda, seysmik xavfsizlikni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Endi zilzila masalasi faqat favqulodda holat emas. U milliy xavfsizlik, barqaror taraqqiyot, zamonaviy shaharsozlik, ilmiy salohiyat va davlat boshqaruvi madaniyati bilan bog'liq strategik masaladir.

1966-yilgi Toshkent zilzilasi butun ilmiy jamoatchilikni yangi izlanishlarga chorladi. Aynan shu davrda O'zbekistonda seysmologiya sohasida mustahkam ilmiy maktab shakllandi. Seysmologiya instituti tashkil etildi, geofizik tadqiqotlar tizimli yo'lga qo'yildi, ilmiy kadrlar tayyorlash yo'nalishi rivojlandi. Keyinchalik bu maktab nafaqat respublika, balki butun mintaqadagi yetakchi ilmiy markazlardan biriga aylandi. Shu ma'noda, Toshkent zilzilasi faqat vayronkor kuch emas, balki ilm-fan taraqqiyotini tezlashtirgan tarixiy turtki ham bo'ldi.

Bugun esa eng muhim jihat shundaki, ilm kabinetlarda qolib ketmayapti. Ilmiy natija amaliyotga, amaliyot esa inson xavfsizligiga xizmat qilmoqda. Seysmik faol hududda joylashgan davlat sifatida O'zbekiston zilzila talafotlari ehtimolini kamaytirish, aholi va infratuzilma xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami islohotlarni izchil amalga oshirmoqda. Bu islohotlar zilziladan oldin, zilzila paytida va undan keyin ko'riladigan chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvga asoslanadi.

So'nggi yillarda seysmik xavfsizlikka davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratildi. Ushbu sohada 2 ta qonun, Prezidentning 2 ta farmoni va 5 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 11 ta qarori qabul qilindi. Mamlakat tarixida ilk bor seysmik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan alohida qonunchilik va institutsional tizim shakllantirildi. Xususan, 2021-yil 13-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi Qonun imzolandi, sohadagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, monitoring tizimini kengaytirish va zilzilabardosh qurilish talablarini kuchaytirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratildi. Prezidentimizning 2025-yil 20-oktabrdagi "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan ishonchli muhofaza qilish sohasini sifat jihatidan yangi



bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Farmoni esa bu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu hujjatlar seysmik monitoringni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ilmiy salohiyatni qo'llab-quvvatlash va qurilish me'yorlarini takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Bu siyosatning amaliy samarasi bugun raqamlarda ham yaqqol ko'rinadi. Agar 2022-yilda mamlakatimizda atigi 35 ta seysmik stansiya mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yilda ularning soni 80 taga yetdi. Bu mamlakatning yer qaridan kelayotgan xavfni ehsitish, anglash va unga tezkor javob berish imkoniyati keskin oshganini anglatadi. Qolaversa, qo'shni davlatlarning 60 taga yaqin stansiyalari milliy kuzatuvlar tarmog'iga integratsiya qilingani zilzilalar o'chog'ini yanada tez va aniq belgilash imkonini bermoqda.

"O'zbekistonning eng muhim yutuqlaridan biri – kuchli zilzilalardan erta ogohlantirish milliy tizimining yaratilayotgani. Bu tizim test rejimida ishga tushirilgan bo'lib, zilzilaning birinchi to'liqlari asosida aholi va infratuzilmani oldindan xabarдор qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, hatto bir necha soniyalik oldingi ogohlantirish ham inson hayotini saqlab qolishi mumkin."

So'nggi yillarda O'zbekistonning yirik shaharlari va hududlari uchun yangi seysmik xavf va mikrohududlashtirish xaritalari ishlab chiqildi. Bu xaritalar hududlarning geologik tuzilishi, grunt xususiyatlari va silkinish intensivligini hisobga olgan holda tayyorlanmoqda. Ularning ahamiyati juda katta: endi yangi binolarni loyihalash, yirik infratuzilma obyektlarini qurish va shahar rivojlanishini rejalashtirishda xavfni oldindan hisobga olish imkoniyati kengaymoqda.

Seysmik xavfni baholash sohasidagi yana bir muhim o'zgarish – zamonaviy monitoring turlarining kengayganidir. Magnetometrik va gidrogeologik kuzatuvlar ko'lami oshirildi, kosmik sun'iy yo'ldosh orqali yer yuzasidagi siljishlarni o'lchaydigan zamonaviy stansiyalar

tarmog'i yaratildi, yer qobig'ining harakatlari muntazam o'rganila boshlandi. Natijada faol yer yoriqlarida kechayotgan jarayonlarni kuzatish imkoniyati bir necha barobar oshdi, bir yilda minglab zilzilalar yozib olinmoqda. Bu esa xavfni faqat qayd etish emas, balki uning ichki mantig'ini tushunish, ehtimoliy ssenariylarni oldindan baholash va qaror qabul qilish aniqligini oshirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O'zbekistonning eng muhim yutuqlaridan biri – kuchli zilzilalardan erta ogohlantirish milliy tizimining yaratilayotgani. Bu tizim test rejimida ishga tushirilgan bo'lib, zilzilaning birinchi to'liqlari asosida aholi va infratuzilmani oldindan xabarдор qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mutaxassislar ta'kidlaganidek, hatto bir necha soniyalik oldingi ogohlantirish ham inson hayotini saqlab qolishi mumkin. 2024-yilda AQShning "Kinemetriks" kompaniyasiga tegishli 140 ta akselerometr xarid qilinib, poytaxtimizga, shuningdek, Toshkent, Andijon, Farg'ona, Namangan, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Navoiy va Surxondaryo viloyatlariga o'rnatildi. Hududning joylashuviga qarab, foydalanuvchilar ogohlantirishni 60 soniyagacha oldin olish imkoniga ega bo'ladi. Bunday qisqa vaqtning o'zi ham odamlarni xavfli joydan chetlatish, zarur ehtiyot choralarini ko'rish uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Yangi yondashuvning yana bir muhim

jihat shundaki, seysmik xavfsizlik bugun faqat stansiyalar yoki uskunalar bilan cheklanmayapti. Bu tizimga raqamli xaritalar, mikrohududlashtirish, bino va inshootlarning elektron texnik pasportlari, simulyatsion modellar, gidrotexnika inshootlari monitoringi, transport infratuzilmasi xavfsizligi va tarixiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kabi yo'nalishlar ham kirgan. Samarqanddagi Region ansambli, Buxorodagi Ark majmuasi, Xivadagi Ichan qal'a singari noyob obyektlarda seysmik datchiklar o'rnatish va ularning holatini doimiy monitoring qilish jarayoni boshlandi.

Seysmik xavfsizlik sohasidagi yana bir strategik yutuq aholini tayyorlash tizimining kengayganidir. Bugun xavfsizlik madaniyati jamiyatning turli qatlamlariga kirib bormoqda.

Milliy ta'lim platformalari, simulyatsiya markazlari, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, mobil ilovalar va amaliy mashg'ulotlar orqali yuz minglab fuqarolar zilziladan oldin, zilzila paytida va undan keyin qanday to'g'ri harakat qilishni o'rganmoqda. Xususan, milliy ta'lim platformasi orqali 190 mingdan ziyod fuqarolar mustaqil malaka oshirdi, ta'lim muassasalarida o'tkazilgan amaliy mashg'ulotlarga 2 milliondan ortiq yoshlar qamrab olingan. Bu raqamlar zilzilaga qarshi kurashda eng kuchli qurol bilim va tayyorgarlik ekanini ko'rsatadi.

Shu ma'noda, O'zbekistonda seysmik xavfsizlikka munosabat tubdan o'zgardi. Ilgari bu sohada, asosan, ofatdan keyingi harakat ustuvor bo'lgan, bugun esa profilaktika, prognoz, raqamli nazorat, tayyorgarlik va jamoaviy mas'uliyat birinchi o'ringa chiqmoqda. Endilikda "Zilzila sodir bo'lsa, nima qilamiz?" degan savoldan ko'ra, "Zilzila xavfini qanday kamaytiramiz?" degan savol muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston xalqaro maydonda ham seysmik xavfsizlik masalasida faol tashabbuskor sifatida namoyon bo'lmoqda. 2025-yilda BMT Bosh Assambleyasi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 29-aprelni Xalqaro zilzila qurbonlarini xotirlash kuni, deb e'lon qilindi. Bu tashabbusning 80 dan ortiq davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangani O'zbekistonning xalqaro nufuzi va gumanitar tashabbuslardagi o'rni tobora mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shu yil 25 – 30-aprel kunlari Toshkent shahrida Osiyo seysmologik komissiyasining 16-Bosh assambleyasi o'tkazilishi ham bejiz emas. Bu O'zbekistonning xalqaro ilmiy markaz sifatida ham e'tirof etilayotganiga dalildir.

Oltmish yillik tarix bir haqiqatni yana bir tasdiqlaydi: xalqimiz har qanday sinovni bilim, iroda va birlik bilan yengib o'ta oladi. 1966-yilgi Toshkent zilzilasi og'ir fojia bo'lgan edi. Ammo bugungi yutuqlar ana shu musibatdan chiqarilgan teran saboqlar samarasidir. Bugun Yangi O'zbekistonda ilm-fan va davlat siyosati uyg'unligi asosida inson hayotini muhofaza qilishga qaratilgan zamonaviy va mustahkam tizim shakllanmoqda. Bu tizim nafaqat bugungi kun, balki kelajak avlodlar xavfsizligining ham ishonchli kafolati.

Zero, fojialar unutilishi kerak emas, balki ular saboq bo'lishi, yanada mustahkam va barqaror jamiyat qurish uchun xizmat qilishi kerak. Toshkent zilzilasining 60 yilligi ana shu buyuk haqiqatni yana bir bor eslatadi: biz tarixdan qo'rqib emas, undan kuch olib yashaymiz. Va biz kelajakni tasodifga emas, ilimga, tayyorgarlikka va inson qadriini ulug'laydigan davlat siyosatiga tayangan holda barpo etmoqdami.

Sirojiddin MIRZAYEV,
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi vitse-prezidenti.

Yoshlar hayoti

RESPUBLIKA SARDORLAR
SAYLOVI

O'zbekiston bolalar tashkiloti "Bolalar harakati" respublika sardorlari saylovi o'z yakuniga yetdi. Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida bo'lib o'tgan ushbu tadbir yurtimizning eng bilimli, shijoatli va vatanparvar yoshlarini bir joyga jamladi.



Qayd etish lozimki, bugungi kunda "Bolalar harakati" o'z safiga 80 mingdan ziyod faol sardorlarni birlashtirgan ulkan kuchga aylangan. Buning barobarida respublika sardorlari saylovi oson kechgan yo'q. Ishirokchilar mahalla, tuman (shahar) va hududiy bosqichlardan o'tib, 4 bosqichli chig'irida o'z mahoratlarini isbotlashdi. Yakunda respublikamizdagi 8 892 ta mahalla va 208 ta tuman-shahardan saralangan 126 nafar eng munosib sardor hal qiluvchi bosqichda belashdi.

Saylov jarayonida ishtirokchilar uchta murakkab shart bo'yicha kurash olib borishdi. Dastlabki shartda yosh yetakchilar o'z yo'nalishlari bo'yicha mavjud muammolarga yechim bo'ladigan innovatsion loyihalarni taqdim etdi. Ikkinchi shartda esa yetakchilik qobiliyati sinovdan o'tkazilib, turli qiyin vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish mahorati baholandi. Yakuniy Quiz-test esa ularning tezkor fikrlashi hamda bilim darajasini aniqlashga yordam berdi.

Yakunda 9 nafar eng kuchli ishtirokchilar respublika sardori etib saylandi. Biroq bu yerda mag'lublar yo'q, bir so'z bilan aytganda, Bo'stonliqda to'plangan 126 nafar sardorning har biri o'z yo'nalishining chinakam yetakchisi ekanini isbotlay oldi.

Rahmatjon BOBOJONOV
("Xalq so'zi").

"ALANGA – 2026"

21-aprel sanasida start olgan "Alanga – 2026" xalqaro bolalar festivali yosh iste'dodlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan yirik tadbir hisoblanadi.

Yoshlar ishlari agentligi, O'zbekiston bolalar tashkiloti hamda "Art Models and Event Group" hamkorligida tashkil etilgan mazkur nufuzli tadbirda qatnashish uchun dunyoning 20 dan ko'p davlatlaridan mehmonlar, taniqli san'at arboblari va yosh iqtidor sohiblari Toshkentga keldi.

Aytish joizki, ilk bor 2025-yilda

o'tkazilgan ushbu festival chinakam "kashfiyotlar maydoni"ga aylangan. O'shanda minglab iqtidorli o'g'il-qizlar o'z mahoratlarini namoyish etib, katta sahnaga ilk qadamlarini qo'yishgandi. O'tgan yilgi muvaffaqiyatli tajriba bu yilgi festivalga qiziqishni yanada oshirib yubordi.

Festival doirasida ishtirokchilar vokal, raqs, aktyorlik mahorati va

model yo'nalishlarida o'z mahoratlarini namoyish etmoqda.

Bu yerda har bir yosh qalb o'z "alanga"sini topadi, o'zligini namoyon qiladi, – deydi O'zbekiston bolalar tashkiloti Boshqaruv kengashi bosh mutaxassisi Gulayim Erjanbayeva. – Bu shunchaki musobaqa emas, do'stlik va yoshlik bayramidir. Iste'dodlar alangasi Toshkent osmonida yanada balandroq porlashiga ishonamiz. Zero, bugun kashf etilayotgan iqtidorlar – ertangi jahon san'atining yorqin yulduzlaridir. Festival 26-aprel kuni nihoyasiga yetadi.

MUNOSIB RAG'BAT

Poytaxtimizda yoshlar, jumladan, nogironligi bo'lgan yigit-qizlar hamda zaif guruh vakillari orasida tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan tashabbus – "O'sish va rivojlanish" (UPSHIFT) dasturi ikkinchi mavsumining yakuniy pitchingi bo'lib o'tdi.



Mazkur dastur ikki yildirki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Xalqaro inklyuziv xab, UNICEF hamda Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirish "Ziyo Forum" fondi hamkorligida amalga oshirilib kelinmoqda.

Joriy yil fevral

oyida yoshlar bilan uchrashuvda davlatimiz rahbari ushbu dasturni kengaytirish muhimligini ta'kidlagan edi. Shu munosabat bilan 2026-yilda

"UPSHIFT" sezilarli darajada quloch yozdi, xususan, unda ishtirok etish shakli yangilandi, g'oliblar soni va moliyalashtirish hajmi oshirildi, shuningdek, Urganch shahrida yangi

platforma ishga tushirildi.

Pitchingdan oldingi bir hafta davomida ishtirokchilar muammolarni tahlil qilish va tadqiq etishdan tortib, yechimlarni ishlab chiqish, prototiplash hamda ommaviy himoyaga tayyorgarlik ko'rishgacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi.

Yakuniy natijalarga ko'ra, 6 ta jamoa va 5 ta individual ishtirokchi tanlab olingan holda ular o'z g'oyalarini amalga oshirish uchun 15 million so'm miqdorda moliyaviy qo'llab-quvvatlashga ega bo'ldi. Endilikda ushbu dastur g'oliblar uchun tashabbuslarni amalga oshirish bilan davom etadi. Ushbu bosqichda ularga loyihalarni boshlash va rivojlantirish uchun zarur mentorlik yordami hamda mutaxassislar ko'magi taqdim qilindi.

2026-yilning birinchi choragida O'zbekistonga qariyb 3,8 mlrd. dollar pul o'tkazmalari yuborilgan, bu 2025-yilning birinchi

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 25 499 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun ohunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxonani telefon: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonani manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 20.30 Topshirildi – 23.40 1 2 3 4 5 6